

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KENESININ  
QARARI**

2023 - yil 20 - noyabr

414-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumani “Qaratal” MFY hududidan  
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, “Yer to'g'risida”gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi va “Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida”gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, Qo'ng'iro't tumani hokimligining 2023-yil 13-noyabrdagi 01-4927-sonli buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qo'ng'iro't tumani hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlardan “Qaratal” MFY hududidan mahalla fuqarolar yig'ini ma'muriy binosi qurilishi uchun 0,12 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq Qo'ng'iro't tumani kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limiga doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda ajratib berilsin.

3. Qo'ng'iro't tumani hokimligi (B.Madaminov) belgilangan tartibda:

ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;

ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralarini ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o‘rnatilgan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**




**F.Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023-yil 20-noyabrdagi  
414-13-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

Qo'ng'iro't tumani kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limiga Qo'ng'iro't tumani  
«Qaratal» MFYdan mahalla binosi qurilishi uchun tanlangan yer uchastkasining

**T A R X I: M-6 1:2000**



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchastkasi zaxira yer maydonlaridan bo'lib, sharq, g'arb, janub  
tarafklar ko'cha, shimol tarafi ochiq maydon.

**WGS-84 Koordinatasi**

1. 43°4'58,46"C 58°54'19,39"B	4. 43°4'59,757"C 58°54'18,066"B
2. 43°4'58,461"C 58°54'18,064"B	5. 43°4'59,755"C 58°54'19,392"B

Yer uchastkasimaydoni: (1200 m2): 0.12 ga

Yer fondi: Aholi punkti yerlari

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: mahalla binosi qurilishi uchun

Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan